



UDK: 37.018.262

Qudratillo SULTONOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: qudratillo.s@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE “FAMILY–STUDENT–EDUCATIONAL INSTITUTION” COOPERATION MECHANISM

Annotation

This article explores the theoretical foundations of the cooperation mechanism between the family, student, and educational institution. It reveals the pedagogical essence of this tripartite interaction, its role in the holistic development of the student, and its relevance in modern higher education. The research is based on competence-based, systemic, and innovative approaches. The effectiveness of the model is substantiated through experimental research, surveys, and statistical analysis. The article concludes with practical recommendations for implementing sustainable cooperation strategies in universities.

Key words: Family, student, educational institution, cooperation, pedagogical system, competence, communication, personal development, integration, innovative approach.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕХАНИЗМА СОТРУДНИЧЕСТВА «СЕМЬЯ–СТУДЕНТ– ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ УЧРЕЖДЕНИЕ»

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы механизма сотрудничества «семья–студент–образовательное учреждение». Освещается суть трехстороннего педагогического взаимодействия, его значение в развитии личности студента и роль в системе высшего образования. Исследование основано на компетентностном, системном и инновационном подходах. На основе результатов анкетирования, мониторинга и экспериментальной работы доказана эффективность модели сотрудничества. В завершение предложены рекомендации по внедрению устойчивой педагогической модели в ВУЗах.

Ключевые слова: Семья, студент, образовательное учреждение, сотрудничество, педагогическая система, компетентность, коммуникация, личностное развитие, интеграция, инновационный подход.

“OILA–TALABA–TA’LIM MUASSASASI” HAMKORLIK MEKANIZMINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “oila–talaba–ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmining nazariy asoslari yoritilgan. Unda uch tomonlama pedagogik hamkorlikning mohiyati, shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi roli hamda oliy ta’lim tizimidagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida oila, talaba va ta’lim muassasasi o’rtasidagi o’zaro ta’sirning pedagogik ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari, so’rovnomalar va statistik tahlillar orqali hamkorlik modelining samaradorligi isbotlab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta’lim muassasalarida samarali uch tomonlama hamkorlikni yo’lga qo’yish bo’yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Oila, talaba, ta’lim muassasasi, hamkorlik, pedagogik tizim, kompetensiya, muloqot, shaxsiy rivojlanish, integratsiya, innovatsion yondashuv.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashda yagona pedagogik subyekt sifatida faqat ta’lim muassasasi faoliyati bilan cheklanmasligi kerak. Chunki talaba shaxsining shakllanishi va ijtimoiy moslashuvi ko’p omilli tizimga tayanadi. Xususan, oila, ta’lim muassasasi va talabaning o’zaro uzviy hamkorligi, o’zaro ta’siri va kommunikatsiyasi bu jarayonning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham pedagogik nazariyada “oila–talaba–ta’lim muassasasi” uchburchak modeli dolzarb nazariy-amaliy yo’nalish sifatida qaralmoqda.

So’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida ham pedagogik jarayonga ota-onalarni faol jalb qilish, talabalarning shaxsiy rivojlanishida oila bilan birga ishlash samaradorligini oshirish bo’yicha ko’plab tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, 2022-yil 12-apreldagi PQ-215-sonli Prezident qarorida oila–ta’lim muassasasi o’rtasida barqaror hamkorlik aloqalarini yo’lga qo’yish zarurligi ta’kidlangan

bo’lib, bu holat masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi [5].

Mazkur maqolada oila–talaba–ta’lim muassasasi o’rtasidagi hamkorlikning nazariy-metodik asoslari, uning pedagogik mazmuni, kompetensiyaviy yondashuvdagi o’rni va amaliy samaradorligi so’nggi ilmiy yondashuvlar va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Oila–talaba–ta’lim muassasasi” hamkorligi masalasi xalqaro va milliy pedagogik adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida o’rganib kelinmoqda. Bu modelning negizida shaxs taraqqiyotini uch tomonlama – tarbiyaviy, kasbiy va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash g’oyasi yotadi.

Avvalo, L.S. Vygotskiy o’zining sotsiokultural nazariyasida bolalar (shu jumladan, talabalar) taraqqiyotida “yaqin rivojlanish zonasi”ni yaratishda atrof-muhit, xususan, oila va ta’limning ahamiyatini urg’ulagan. Unga ko’ra, shaxs rivoji ichki potensialning sotsial omillar bilan uyg’unlashuvi natijasida yuzaga chiqadi [3].

A.V. Mudrik ijtimoiylashtirish nazariyasida oila va ta'lim muassasasini ijtimoiy institut sifatida qarab, shaxsni ijtimoiy tizimga moslashtirishdagi roli haqida so'z yuritadi. U talaba shaxsining shakllanishi davomida ijtimoiy aloqa va muloqot muhitining hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi [2].

O'zbek pedagogikasida ham bu borada bir qator nazariy-metodik izlanishlar mavjud. M. Tagiyeva o'z tadqiqotlarida oila-ta'lim muassasasi hamkorligining samaradorligini oshirishda kommunikativ madaniyat, o'zaro mas'uliyat va pedagogik sheriklik tamoyillariga asoslangan modelni taklif etadi [1].

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar, xususan, Z. Komilova (2023) tomonidan taklif etilgan kompetensiyaviy yondashuv asosidagi hamkorlik modeli talabaning shaxsiy, kasbiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni talab etishini ko'rsatmoqda [4]. Statistik ma'lumotlarga murojaat qilsak, 2024-yilgi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi byulletenida qayd etilishicha, ota-onalar bilan samarali pedagogik hamkorlik o'rnatilgan universitetlarda talaba ishtirokchiligidagi ijtimoiy loyihalar soni 28 foizga oshgan [6].

Shuningdek, G. Mahkamova (2023) o'z izlanishlarida hamkorlikni raqamli vositalar, masalan, ota-onalar uchun yaratilgan maxsus platformalar orqali amalga oshirish modeli samarali ekanligini asoslaydi. Uning tadqiqotida ota-onalar ishtirokida amalga oshirilgan monitoring natijasida talaba faolligi va mas'uliyati 15–20% ga oshgani aniqlangan [7]. Xalqaro miqyosda esa Joyce Epstein (USA) tomonidan ishlab chiqilgan “Six Types of Parental Involvement” modeli “School–Family–Community Partnership” konsepsiyasi doirasida o'rganilib, oila ishtirokining ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy isbotlangan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot “oila–talaba–ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmining nazariy asoslarini aniqlash, ularning pedagogik jarayondagi o'rini aniqlash, mavjud tajribalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va amaliy qo'llanilishini asoslashga qaratilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik metodologiyaga mos holda tizimli, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlar asos qilib olindi.

Avvalo, tadqiqotning metodologik asosini shaxsni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi yondashuvlar tashkil etadi:

– Sistemali yondashuv orqali oila, talaba va ta'lim muassasasi o'zaro bog'liq, yagona pedagogik tizim sifatida ko'riladi. Bu yondashuv talaba shaxsining shakllanishida barcha tomonlar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga imkon beradi.

– Kompetensiyaviy yondashuv talabaning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishda oila va ta'lim muassasasining integratsiyalashgan ta'sirini o'rganishga xizmat qiladi.

– Innovatsion yondashuv orqali raqamli texnologiyalar yordamida ota-onalar va oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi aloqalarni interaktiv vositalar orqali rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning obyekti – oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar bilan ishlash jarayonida shakllanadigan “oila–talaba–ta'lim muassasasi” o'rtasidagi hamkorlik tizimidir. Predmeti esa – ushbu hamkorlik modeli asosida talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi

pedagogik mexanizmlarning nazariy asoslari va samaradorligidir.

Tadqiqot 2023–2025 yillar oralig'ida olib borildi va tajriba-sinov ishlari O'zbekistonning bir nechta oliy ta'lim muassasalari, jumladan Andijon davlat tibbiyot instituti va Samarqand va Buxoro davlat tibbiyot universitetlari negizida tashkil etildi. Unda jami 700 nafar talaba, 200 nafar ota-ona va 100 dan ortiq o'qituvchi ishtirok etdi.

Tadqiqotda turli xil metodlar qo'llanildi. Birinchidan, ilmiy-nazariy tahlil orqali mavzuga oid milliy va xorijiy adabiyotlar o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari tizimlashtirildi. Bu bosqichda Vygotskiy, Mudrik, Epstein, Mahkamova, Komilova kabi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ikkinchidan, so'rovnoma va intervyu metodlari orqali talabalar, ota-onalar va pedagoglar fikrlari o'rganildi. Google Forms orqali tuzilgan anketalarda uch tomonlama hamkorlikning dolzarbligi, mavjud muammolar va takliflar haqida ma'lumotlar yig'ildi. Uchinchidan, eksperimental metod asosida “oila–talaba–ta'lim muassasasi” hamkorligi asosida shakllantirilgan pedagogik model tajriba guruhlarida sinovdan o'tkazildi. Oldin va keyingi holat natijalari solishtirilib, real samaradorlik aniqlandi. To'rtinchidan, monitoring va kuzatuv usuli bilan talabalarning ijtimoiy faolligi, darsdagi ishtiroki, o'zini-o'zi baholashi va ota-onalar ishtirokidagi o'zgarishlar muntazam kuzatib borildi.

Metodologik jihatdan kuchli asoslangan bu yondashuvlar orqali uch tomonlama hamkorlikning pedagogik ahamiyati, ijtimoiy funksiyasi va innovatsion imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida “oila–talaba–ta'lim muassasasi” hamkorlik mexanizmining pedagogik samaradorligi va amaliy ahamiyati turli usullar orqali chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy tahliliy bosqichlarida so'rovnoma, intervyu, monitoring va eksperiment ma'lumotlari statistik va kontent tahlil metodlari asosida qayta ishlanib, quyidagi natijalarga erishildi.

1. So'rovnoma natijalari tahlili

So'rovnoma 3 ta guruh – talabalar, ota-onalar va pedagoglar o'rtasida o'tkazildi. Umumiy respondentlar soni 1000 nafardan iborat bo'lib, quyidagi asosiy ko'rsatkichlar aniqlandi:

Talabalarining 76,2% i oila tomonidan qo'llab-quvvatlanish ta'limdagi motivatsiyani oshirishini tan oldi.

Ota-onalarning 59,8% i ta'lim muassasasi bilan muntazam muloqotda emasligini bildirdi, bu esa hamkorlikning barqaror emasligini ko'rsatadi.

O'qituvchilarning 82,4% i oila bilan hamkorlik qilgan talabalar o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishini qayd etdi.

2. Eksperiment natijalari

Tajriba-sinov ishlari davomida 2 ta guruh tashkil qilindi:

Nazorat guruhi – an'anaviy o'quv jarayonida qatnashgan talabalar.

Tajriba guruhi – “oila–talaba–ta'lim muassasasi” hamkorlik modeli asosida o'qitilgan talabalar.

O'quv yilining oxirida bilim ko'rsatkichlari, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va ishtirok darajasi quyidagicha farq qildi:

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
O'quv motivatsiyasi yuqori	41,3	73,8
Darslardagi ishtirok faolligi	48,5	81,2
Mustaqil ishga bo'lgan mas'uliyat	46,9	77,6
Ijtimoiy tadbirlardagi ishtirok	34,7	70,5

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik modeli asosida o'qitilgan guruhda talabalarning nafaqat bilim ko'rsatkichlari, balki ijtimoiy-madaniy faolligi, tashabbuskorligi ham sezilarli darajada oshgan.

3. Intervyular asosida sifatli tahlil

Talabalar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan o'tkazilgan intervyular kontent-tahlil qilinib, asosiy mavzular quyidagicha guruhlashtirildi:

Ijoiy jihatlari: o'zaro ishonch, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mas'uliyatning oshishi.

Muammolar: ota-onalarning pedagogik savodxonligi pastligi, vaqt yetishmovchiligi, raqamli muloqot vositalaridan foydalanishdagi cheklovlar.

Takliflar: ota-onalar uchun treninglar tashkil etish, onlayn monitoring platformalari joriy etish, uchrashuvlarni tizimli o'tkazish.

4. Monitoring va davomiy tahlil

Tadqiqot davomida kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ota-onasi bilan pedagogik muloqotda bo'lgan talabalar:

o'quv intizomi bo'yicha 23,4% yaxshilanishga erishgan;

o'zlashtirish ko'rsatkichlarida o'rtacha 1,2 ball yuqoriroq baholarga ega bo'lgan;

akademik qiziqishi va mas'uliyat hissi barqaror rivoj topgan.

Shuningdek, statistik byulleten (OTFIV, 2024) ma'lumotlariga ko'ra, ota-onalar bilan faol aloqada bo'lgan OTMlarda akademik muammolar tufayli o'qishni tark etish holatlari 12–15% ga kamaygan.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "oila–talaba–ta'lim muassasasi" hamkorlik modeli zamonaviy ta'lim tizimida talabaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim pedagogik vosita bo'lib

xizmat qiladi. Har uch tomon – oila, talaba va ta'lim muassasasi o'rtasidagi barqaror, tizimli va mas'uliyatli aloqalar talabaning o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnoma, kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlarining tahlili asosida aniqlanganki, ota-onasi bilan pedagogik muloqotda bo'lgan talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari, darslardagi ishtiroki va tashabbuskorligi bo'yicha ancha yuqori natijalarga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, oila tomonidan doimiy pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlangan talabalarda mas'uliyat hissi va ijtimoiy faollik yuqori bo'lishi kuzatildi.

Shuningdek, o'qituvchilar va kuratorlarning fikricha, ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatilgan guruhlar dars davomiyligi, intizom, baholash, hamkorlikdagi loyihalarda ishtirok kabi ko'rsatkichlarda ijobiy dinamikani namoyon qilgan. Bu esa "uch tomonlama pedagogik muloqot" modelining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Ta'lim muassasalarida "Oila–ta'lim–talaba" uchligini birlashtiruvchi axborot platformalarini yaratish, ota-onalarni pedagogik jarayonlarga jalb qilish bo'yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish, shuningdek, talabalarning oilaviy muhitini o'rganish asosida individual yondashuvlarni shakllantirish kabi choralar ushbu hamkorlik modelining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yakuniy xulosa qilib aytganda, "oila–talaba–ta'lim muassasasi" uchligi asosida qurilgan pedagogik mexanizm nafaqat talabaning shaxsiy rivojlanishiga, balki ta'lim tizimining barqaror va sifatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Bu modelni amaliyotga tatbiq etish orqali oliy ta'limda insonparvarlik, mas'uliyat va ijtimoiy sheriklik tamoyillariga asoslangan yangi ta'lim madaniyatini shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Тажибаева М. Роль семьи в формировании личности студента: педагогический подход. – Т.: Фан, 2020. – 184 б.
2. Mudrik A.V. Sotsiologiya vospitaniya. – M.: Akademicheskii proyekt, 2017. – 256 s.
3. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. – М.: Педагогика, 2019. – 318 с.
4. Komilova Z.M. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talaba shaxsini rivojlantirish. // Ta'lim va fan. – 2023. – №1. – B. 25–30.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-apreldagi PQ–215-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/5975696>
6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi statistik axborot byulleteni, 2024-yil yakuni. – Toshkent, 2025. – 54 b.
7. Mahkamova G.X. Oila–ta'lim muassasasi aloqalarini mustahkamlashda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: "Ilm ziyo", 2023. – 96 b.
8. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – New York: Routledge, 2018. – 344 p.
9. Tukhtaeva, N., Ismanova, A., Allamuratova, Z., & Khayitboev, N. (2024, November). Using mind mapping in teaching computer science. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.
10. Arofat, I. (2016). Social-political need of fighting with Enlightenment against ideology of religious extremism and terrorism. European research, (6 (17)), 96-98.
10. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. Eastern European Scientific Journal, (3).
11. Тешабоева, З. Т., & Кобулова, М. А. (2024). Совершенствование методов привлечения студентов к науке и исследованиям в ВУЗах. Science and innovation, 3(Special Issue 15), 442-444.
12. Кобулова, М. А. (2024). Информационные технологии в медицинском образовании-как фактор повышения качества обучения. AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari, 1(1), 434-437.
13. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. Eastern European Scientific Journal, (3).
14. Ismanova, A. A. (2015). Educational and others technologies for the prevention of the struggle against religious extremism and terrorism. Theoretical & Applied Science, (11), 63-66.
15. Ismanova, A. (2022). upbringing of highly educated young people is the main basis for preventing religious extremism and terrorism. Экономика и Социум, (10-2 (101)), 59-62.